

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili” davlat dasturi bo‘yicha 2024-yilning III-chorak yakuni yuzasidan
TAHLILIY MA’LUMOT

“Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili” respublika davlat dasturiining 48-maqсад, 13-bandida “Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish hamda 61-maqсад, 94-bandida Respublika aholisining ichimlik suv ta’mnoti darajasini oshirish vazifalari belgilangan edi. O’tgan davr mobaynida ushbu tegishli bandlar ijrosi bo‘yicha “NPKMK AJga talluqli ik yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan:

1. Dasturda ko`zda tutilgan 2-ilova 13-band, ya`ni, “Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish ijrosini ta’minalash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-avgustdagи 408/10-sonli qarori bilan loyihaning TIHK tasdiqlandi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, mazkur investitsiya loyihasini amalga oshirilishdan asosiy maqsad - “NPKMK” AJning eskirgan texnologik uskunalar, tog‘-kon kompressorlar va qurilish mexanizmlarini bosqichma-bosqich zamonaviy texnologik talablarga javob beradigan va energiya tejamkor mexanizm va texnikalarga almashtirishdan iborat.

2024 yil 24 sentyabr holatiga jami 28 birlikda uskunalar va texnikalarga qiymati **56,6 mln.dollarlik** shartnomalar imzolangan. Ushbu shartnomalar bo‘yicha **45,6 mln.doll to‘lovlar** amalga oshirildi. Xususan, ayni kunda 1 dona ekskavator Xitoy davlatidan temir yo‘l transporti orqali yetib kelishi kutilmoqda, 2 dona ekskavator ishlab chiqarish jarayonida. Shuningdek, 5 dona yuk ko‘tarish imkoniyati 90 tonna bo‘lgan kon avtosamosvallari ishlab chiqarilgan va Belgiyaning Antverpen portidan Estoniya davlatiga jo‘natildi. Loyiha dorasida 2 dona qiymati **3,6 mln.doll.** bo‘lgan zanjirli buldozerlar va 9 dona qiymati **14,4 mln.doll.** bo‘lgan yuk ko‘tarish imkoniyati 90 tonna bo‘lgan kon avtosamosvallar, 1 dona qiymati **0,08 mln.doll.** bo‘lgan TVCH toblovchi uskunsi yetkazib berildi.

2. Dasturda ko`zda tutilgan 61-maqсад, 94-bandda Respublika aholisining ichimlik suv ta’mnoti darajasini oshirish vazifasi belgilangan edi. Shu davrga qadar bu loyihaning moliyalashtirish manbai aniqlanib, 26 tozalash uskunasini urnatiladigan joy hamda 26 ta uskuna o‘rnatiladigan innovatsion hududlar belgilab olindi. Namuna sifatida NMZda 1 dona uskuna tayyorlandi.

Uskunalarni o‘rnatish va xizmat qilish ishlarini Xorazm kompaniyasi “Ecocompany” MCHJ bilan shartnoma tuzish ishlari olib borilmoqda. Texnik vazifalar tasdiqlangan. Hozirda Qoraqalpog‘iston Respublikasida 6 tozalash uskunasini o‘rnatildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 6 ta tozalash uskunasi uchun burg‘alash va fundament ishlari tugatildi. Loyihani amalga oshirihs uchin Innovatsion rivojlanish fondidan 3 mlrd. sum mablag‘ ajratildi.